



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ *ning*
20__-20__-o'quv yilida 7-sinflar uchun
ona tili fanidan II chorak

DARS
ISHLANMALAR

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 7-sinf ona tili fanidan II chorak
 taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Diagramma, audio matn ustida ishlash. Fe’llarning tuzilishiga ko‘ra turlari va ularning imlosi	1		
2.	Matn o‘qish(Kelajakda ishsiz qolmang!). Gap bo‘laklari	1		
3.	Tahliliy matn yozish	1		
4.	Veterinar. Tasviriyl matn.	1		
5.	Matn o‘qish. “Muhim kasb”. Atamalar.	1		
6.	Fe’l zamonlari	1		
7.	Matn o‘qish (“Oqbo‘yin”). Topshiriqlar ustida ishlash.	1		
8.	Tasviriyl matn. Hadis. Topshiriqlar ustida ishlash.	1		
9.	Mustahkamlash	1		
10.	4-nazorat ishi	1		
11.	Maqsadli xarajatlar. Xarajat turlari	1		
12.	Audiomatn. Test topshiriqlari	1		
13.	Matn o‘qish (“Xarajatlarni farqlash”). Zamon, shaxs-son qo‘shimchalari, ularning ifodalanishi, imlosi va talaffuzi	1		
14.	Yozib kelingan esselar tahlili va tahriri	1		
15.	Bobomning pensiyasi. Qavm-qarindoshlikni ifodalovchi til birliklari, ularning ma’nolari.Topshiriqlar ustida ishlash	1		
16.	Otlarning lug‘aviyl shakllari, ularning qo‘llanishi, imlosiga oid mashq va topshiriqlar.	1		
17.	Matn o‘qish (“Keksalar maoshi”). Ravish so‘z turkumi, uning imlosi.	1		
18.	Hikmatlar. Topshiriqlar ustida ishlash	1		
19.	5-nazorat ishi	1		
20.	Mustahkamlash	1		
21.	Fizika hayotni yengillashtiradi. Fizika faniga oid atamalar, ularning talaffuzi va imlosi. Gaplar orasidagi tinish belgilari (vergul)	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Diagramma, audio matn ustida ishlash. Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari va ularning imlosi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

– eshitilgan yoki o'qilgan matnlardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi :

– doimiy ravishda mustaqil o'qib-o'rganish, bilimni oshirib borish, kognitivlik (ijodiylik) ko'nikmasini shakllantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.



III. Yangi mavzu bayoni:

Matnda berilgan ma'lumotlar diagramma ko'rsatkichlariga mosligini aniqlang.

Tushunganlaringizni yo'riqnoma asosida gapirib bering.

Yo'riqnoma:

- matnni o'qib chiqing;
- diagrammaga nom tanlang;
- ranglarga e'tibor bering;
- matndagi raqamlar hamda diagrammadagi ko'rsatkichlarni solishtiring;
- fikringizni xulosalang.



UNICEFning maxsus loyihasi bo‘lgan **U-REPORT** yoshlar platformasi 2019-yil 13-may kuni yoshlarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazdi. Unda 6300 dan ortiq o‘zbekistonlik yoshlar qatnashdi. **Respondentlarning** javoblari tahliliga ko‘ra, kasb tanlashga quyidagi 4 omil ta’sir o‘tkazadi:

- shaxsiy qobiliyat (34%);
- kasbga muhabbat (20%);
- moliyaviy imkoniyatlar (20%);
- ota-onalar qarori (11%).

Ishtirokchilarning 82 foizi yoshlarni kasbga yo‘naltirish hukumat tomonidan tashkil etilishi kerak deb hisoblaydi.

Matn bilan tanishing. Matndagi sodda fe‘llarni ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmalar bilan almashtirib, ularni ko‘chiring. Fe‘l ma’nolarida qanday o‘zgarish bo‘layotganini aniqlang.

Namuna *aytilmoqda – aytib kelinmoqda.*

Nanotexnologiya bugun mashinasozlik, tibbiyot va hatto oziq-ovqat sanoatida **qo‘llanyapti**. Robotlar va mikrotizimlardan foydalanadigan soha va tarmoqlar soni tobora **ko‘paymoqda**. O‘z-o‘zidan bu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislarga ham talab **ortaveradi**.

Quyida berilgan fe‘llar ishtirokida tanlagan kasbingiz haqida gaplar tuzib, yozing. Fe‘llarning tuzilishi va imlosiga e’tibor bering.

Sodda fe‘l	Qo‘shma fe‘l	Juft fe‘l	Takroriy fe‘l
tanlamoq (kasb nomi) bo‘lmoq	yelib-yugurmoq	o‘ylay-o‘ylay
suhbatlashmoq	baxshida etmoq	qo‘llab-quvvatlamq	ishlab-ishlab

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni talaffuz qiling. Qaysi so‘z(lar) ma’nosini o‘zbek tilida ham ifodalash mumkin deb hisoblaysiz?

2. Matnda nima uchun *o‘zbekistonlik* so‘zi kichik harfda yozilgan? Bu to‘g‘rimi?

Javobingizni izohlang.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e’lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Matn o‘qish(Kelajakda ishsiz qolmang!). Gap bo‘laklari

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

– eshitilgan yoki o‘qilgan matnlardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi :

– doimiy ravishda mustaqil o‘qib-o‘rganish, bilimni oshirib borish, kognitivlik (ijodiylik) ko‘nikmasini shakllantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Bilasizmi, dunyo juda tez sur’atda rivojlanib, o‘zgarib bormoqda. Mutaxassislarning aytishicha, yaqin kelajakda hozir mavjud kasblarning ko‘pi keraksiz bo‘lib qoladi va yangi kasblar paydo bo‘ladi. Agar kelajakda ishsiz qolishni xohlamasangiz, hoziroq kasb tanlash masalasida jiddiyroq o‘ylab ko‘ring. Robot texnologiyalari biz kutgandan ham tezroq rivojlanmoqda. Ayrim zavod va fabrikalarda ishlab chiqarish to‘liq avtomatlashtirilgan. Ya’ni robotlar kuchidan foydalaniladi, odamlar esa deyarli ishlamaydi. Yaqin 20–30 yildan keyin esa robotlar hozir odamlar bajarayotgan ko‘plab vazifalarni o‘z zimmasiga olar ekan. Shuning uchun kasb tanlashda bu ishni kelajakda robotlar qila olishi yoki yo‘qligi haqida ham o‘ylab ko‘ring. Kelajakda olimlarga, ayniqsa, fizika, matematika, astronomiya, kimyo, biologiya kabi soha mutaxassislariga ehtiyoj ortadi. Axborot texnologiyalari rivojlangani

uchun dasturchilik eng daromadli kasbga aylanadi. Kompyuter va axborot texnologiyalari bilan bog'liq har qanday kasb egalari kelajakda yaxshi ish bilan ta'minlanadi. Kelajakda shifokor, o'qituvchi va murabbiylarga ham yaxshi oylik beriladi. Chunki bu kasblarni robotlar hech qachon egallay olmaydi. Ammo kompyuter grafikasining rivojlanishi tufayli kelajakda aktyorlarga ehtiyoj bo'lmasligi mumkin. Hatto bugun ham ayrim filmlarda aktyorlarning o'rnini kompyuter dasturi orqali yaratilgan qahramonlar egallab ulgurgan. Shuning uchun mashhur kino yulduzi bo'lishni orzu qilib yurgan bo'lsangiz, bu haqda qayta o'ylab ko'ring.

Kasb tanlashda O'zbekistondagi sharoitni ham hisobga oling. Ya'ni yurtimizda qanday kasblarga ehtiyoj bor, qanday sohalar hali rivojlanmagan yoki umuman bizga kirib kelmagani haqida o'ylang. Tag'in o'zingizcha, hech kim bilan maslahatlashmay kasb tanlab, kelajakda ishsiz qolib ketmang!



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Matn muallifi ushbu fikrlari orqali kimlarga murojaat qilmoqda?
2. Matnning asosiy maqsadi nimadan iborat?
3. Robotlarning asosiy vazifasi haqida gapiring.
4. Kelajakda qanday kasb egalariga ehtiyoj ortishi kutilmoqda? Buning sababini tushuntirishga harakat qiling.
5. Aktyorlarning vazifasini kompyuterlar qay darajada uddalay oladi deb hisoblaysiz? Kompyuter dasturlarida yaratilgan qahramonlar faoliyatini qanday baholaysiz?
6. Tanlaydigan kasbingiz borasida kimlar bilan maslahatlashishni ma'qul ko'rasiz?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

42 listdan iborat ona tili fanidan 7-sinf II chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**